O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

2. Индустрия мобильных технологий за последние годы не теряет темпа своего развития (overclockers.ru).
3. Global smartphone shipments from 2007 to 2022
https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/271491
4. Best Mobile Phone Brands In The World 2023: Top 8 Most Popular (bscholarly.com) By Edeh Samuel Chukwuemeka ACMC / April 23, 2023
5. Top 10 Mobile Phone Brands in World 2023 | MBA Skool.
6. https://www.gazeta.uz/ru/2020/11/30/mobile-import/

KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLARSHIRISHNING NAZARIYASI VA ILMIY ASOSLARI

Mamatqulov G‘ulom Rustamovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
g.r.mamatqulov@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisda Raqamli iqtisodiyotning ilmiy asoslari, raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi imkoniyatlari kelib chiqib, korxonlar faoliyatini raqamlashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, korxona, texnologiya, ishlab chiqarish, raqamli transformatsiya, boshqaruv, raqamlashtirish.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida zamonaviy raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlik o’sishini belgilovchi asosiy ishlab chiqarish resursi sifatida qaralmoqda. Tashkilotlar va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalari tomonidan zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanish ularning raqamli iqtisodiyotda samarali ishlashining eng muhim shartidir.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.[1]

Korxonani raqamlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o’zgartiradi va korxona faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirish yuzasidan bir qancha olimlar o’z fikrlarini bildirishgan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1994 yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapskottning tomonidan ishlatilgan. Muallif o’z ishida

raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta’siri haqida gapirgan. U tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes yuritishning mutlaqo yangi biznes modellarining paydo bo’lishini raqamlashtirishning asosiy afzalliklardan biri deb hisoblagan. V.A.Plotnikovning tadqiqotlarida raqamlashtirish bu "axborotlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bo’lib, axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun raqamli texnologiyalardan keng ko’lamda foydalanish bilan tavsiflanuvchi yangi qurilma va dasturiy taominotning birlashmasi bilan tavsiflanadi” deb ta’rif bergan. Bundan tashqari u korxonalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda erishadigan bir qancha afzalliklarni sanab o’tgan:

- “Ishlab chiqarishning moslashuvchanligi uning tez qayta konfiguratsiyasi, ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining dinamik o’zgarishi hisobiga ortadi, bu esa raqobatdosh ustunlikni yaratadi va potentsial foyda o’sishiga olib keladi;

- mahsulotlarni ishlab chiqishdan tortib to utilizatsiya qilishgacha bo’lgan hayot tsiklining bosqichlarini axborot integratsiyasini ta’minlaydi, bu bizga nafaqat ishlab chiqarishni optimallashtirish, balki sifat, ekologik xavfsizlik, biznesning yangi imkoniyatlarini yaratish va hokazolarni samarali va har tomonlama hal qilish imkonini beradi.[2]

2001 yilda Tomas Mesenburg raqamli iqtisodiyotning 5 ta komponentini aniqroq tuzib chiqdi va aniqladi, uning fikricha, ularni statistik baholash va o’lchash mumkin:

- korxonalarning elektron infratuzilmasi, jumladan, dasturiy ta’minot va kompyuterlar;

- elektron tijorat;

- raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali an’anaviy tarmoqlar qiymatini oshirish;

- raqamli iqtisodiyot ishchi kuchi qiymatining an’anaviyga nisbatan farqi;

- raqamli iqtisodiyot mahsulotlari va xizmatlarining qo’shilgan qiymatining o’zgarishi.

Brynjolfsson va Kahinlar (2002) tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari ilk marotaba 1990 yillarning o‘rtalarida muhokama mavzusi sifatida targ‘ib qilinib, ilk ta’riflar keltirilib, mazkur ta’riflarda korxona va iste’molchilarni virtual dunyoda uchrashtiruvchi vosita sifatida e’tirof etildi.[3]

Raqamlashtirishning rivojlanishi bilan korxonaning biznes modellari doimiy ravishda o’zgarib turadi. Shuning uchun ko’pgina mualliflar raqamlashtirish ta'rifini turlicha izohlaydilar. Masalan, Aleksandr Kutsman raqamli iqtisodiyotni “moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslarni aniqlash, saqlash, qayta ishlash uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish asosida axborot va bilimlarning ustuvor roli bilan tavsiflangan zamonaviy iqtisodiyot turi sifatida tavsiflanadi.”. Aksanov R. K. raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va electron tijorat xizmatlarini ishlab chiqarishga asoslanganligini ta'kidlaydi. Elektron tijorat ostida Aksanov R.K. kapitalning elektron harakati, elektron mahsulotlar, shuningdek, elektron axborot almashinuvi jarayonini nazarda tutadi

Korxonaning raqamli transformatsiyasidan asosiy maqsad, bizningcha, uning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy

samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni taominlashdan iborat. Raqamli transformatsiya vazifasining maqsadiga muvofiq korxonalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yuqori samaradorlikka, ishlab chiqarish va tashkiliy jarayonlarning moslashuviga erishish;
- korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- korxonaning iqtisodiy samaradorligini kafolatlaydigan boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va shaffofligini oshirish va boshqalar.
- Raqamli korxona kontseptsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish.

Korxonaning joriy holatida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash va aniq maqsadlarni belgilash. Belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ketma ketligini va strategiyasini tuzib chiqish.

- Axborot tahlili. Ko‘p funktsiyali mutaxassislar jamoasi yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish, keyinchalik to‘plangan ma’lumotlardan tashkilotning ishlashi, qarorlar qabul qilish, intellektual tizimlarni loyihalash, mahsulotlarni takomillashtirish, yangi takliflar va xizmatlarni yaratish uchun foydalanish kerak.
- kerakli resurslarni aniqlash
- maqsadga erishish uchun zarur resurslarni batafsil aniqlash, biznes jarayonlarini takomillashtirish uchun mutaxassislarni jalb qilish va o‘qitish, yangi texnologiyalarni joriy etish strategiyalarini ishlab chiqish kerak.
- g’oyaning hayotiyligini sinab ko’rish va biznes qiymatini ko‘rsatish uchun dastlabki tajriba loyihalarini yaratish. Mahsulotlar, jarayonlar va korxonalarning raqamli dublikatlarini ishlab chiqish.
- Raqamli transformatsiyani jadallashtirish , olib borilayotgan loyihalarning rentabelligini ta’minlash uchun universitetlar, raqamli texnologiyalar sohasidagi yetakchi firmalar bilan hamkorlik qilish, raqamli startaplar bilan ishlash zarur. Olingan tajribani tahlil qilish asosida raqamli korxonaning tugallangan kontseptsiyasini aniqlang.
- Raqamli korxonaga aylantirish. Anoanaviy korxonani raqamli korxonaga aylantirish uchun menejment tuzilmasi va funktsiyalarini aniq tartibga solish, yuqori menejmentning aniq rahbariyati, majburiyatlari va qarashlari talab qilinadi. Raqamli innovatsiyalarga qarshi turish imkoniyatini bartaraf etadigan xodimlarni rag’batlantirish tizimini ishlab chiqish . Raqamli madaniyatni rag’batlantirish kerak: barcha xodimlar raqamli sanoat muhitida ishlay olishlari, yangi texnologiyalarni sinab ko’rishga tayyor bo’lishlari, asbob-uskunalar bilan ishlashning yangi usullarini o’rganishlari kerak.
- Ishlab chiqarishni raqamliga o’zgartirishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish tizimlarining gorizontal va vertikal integratsiyasi zarur va hozirda foydalanilayotgan axborot tizimlarining muhim qismi ma’lumot almashishi mumkin, ammo ularning muvofiqligi korxona ichida ham, o’zaro ta’sir qiluvchi korxonalar o’rtasida ham barcha darajalarda taominlanishi kerak.

Yagona axborot makonini yaratish korxonalarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va sanoat uskunalari o’rtasida tezkor va o’z vaqtida

axborot almashish imkoniyatini beradi. Raqamli ishlab chiqarishda mahsulotlar individual buyurtmalar bo’yicha ishlab chiqarilishi mumkin, shuning uchun iste’molchi o’zaro ta’sirning bevosita ishtirokchisi va shuning uchun qiymat zanjirining elementi bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
3. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massach usetts Institute of Technology, Cambridge, MA
4. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130.
5. O.V.Kitova, Digital Transformation of Business http://digitaleconomy.ru/images/easyblog_articles/320/kitova.pdf

O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISH

Ibrohimjonova Zahroxon Sultonbek qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
ibrohimjonovazahroxon8@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish maqolasi, mamlakatning turli sohalarida, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va moliyaviy xizmatlar sohasida sun'iy intellektning amaliy qo'llanilishi va uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqola, sun'iy intellekt texnologiyalarining O'zbekistonning texnologik taraqqiyotidagi roli va kelajakdagi istiqbollarini baholaydi. Shuningdek, texnologik yangilanishlar mamlakatdagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni yaxshilashga qanday yordam berishi mumkinligini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Sun'iy intellekt, O'zbekiston, Texnologik innovatsiyalar, Ta'limda sun'iy intellekt, Sog'liqni saqlash texnologiyalari, Ishlab chiqarish avtomatlashtirilishi, Moliyaviy texnologiyalar, Raqobatbardoshlik, Iqtisodiy taraqqiyot.

Kirish: O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish sohasida bir qator qiziqarli yo'nalishlar mavjud. O'zbekiston bu texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda, chunki bu soha iqtisodiyotning turli sektorlarini, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va moliya tizimlarini modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Mana ba'zi yo'nalishlar: